

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607794>

## TARBIYA FANINING FARZAND TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Sultanova Nodira Rashid qizi**

Urganch davlat pedagogika institute 1-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola orqali siz Tarbiya fanining shakl, uslub, vositalari haqida bilimlarga ega bo'lasiz. Tarbiya fanining mazmun-mohiyati, o'qitishning shakllari va bugungi kundagi tarbiya fanining o'rni haqida yanada chuqurroq yangi bilimlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'z:** *Tarbiya, shakl, uslub, mazmun-mohiyat, tarbiya fani, o'qituvchi, ta'lim, shaxs, insoniylik, qadriyat.*

**Kirish:** Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning tarbiya borasidagi qiymati o'lchanmas fikrini isbot o'rnida keltirmoqchiman: "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir". Ma'lumki, ta'lim va tarbiyaning o'rtasida ochiq-oydin farq bor. "Ta'lim"—arabcha so'z, o'zagi ilm, tarbiyaning bir qismidir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o'z -o'zidan ta'limga nisbatan keng qamrovlidir. Jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo

qilish zaruriyat, va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning makoni qalb bo'lib, inson qalbiga ta'sir etuvchi manbalardan foydalangan holda tarbiyaviy ishlar yo'lga qo'yilmog'i lozim. Ha aytgancha, adabiyot (odob) o'qitishning bosh maqsadi ham komil shaxsni shakllantirish! Adabiyot darslarida hadislar, adiblar, ularning ijod namunalari, asar qahramonlari va ular tahlili jarayonida o'quvchi ruhiy va aqliy kamoloti bilan shug'ullaniladi. Asar qahramonlari ruhiyatiga kirish jarayonida o'quvchilar albatta o'zlariga xos tuyg'ularni his qilishadi. Birgina A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida Kumushning o'lim to'shagida yotgan holatda bo'lsa-da, Yusufbek hojiga hurmat ko'rsatib o'rnidan turishga intilishining o'zidayoq tarbiyaviy jihatlar o'rgatilayotganini kim rad etoladi?! Adabiyot darslarida o'g'rilik va to'g'rilik, qo'rqqoqlik va uning badali, hissiyotlar ifodasi, vatanparvarlik, oilaga sadoqat, xiyonat, oqibat kabi insonga xos hislar o'rgatiladi va bu orqali o'quvchi tarbiyalanadi. Albatta, natija o'qituvchi mahoratiga ham bog'liq. Ishonavering, adabiyot darslari o'quvchilarni katta hayotga adiblar va ularning asarlari orqali tarbiyalab, tayyorlaydi. Ta'lim — komil tarbiyaning bir juz'idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o'z hayotida kerak bo'ladigan ilm-u ma'rifatni, ashyolar to'g'risidagi turli ma'lumotlarni, kasbiy mahoratni yoki kasb va hunarlarga tegishli bo'lgan fanlarni o'rganadi. Lekin tarbiyaga o'xshab keng qamrovli bo'la olmaydi. Chunki ta'lim insonning ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birga bo'lishi talab etiladi. Bu haqiqatni esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ollloh taolo Men orqali yuborgan hidoyat va ilmning misoli yerga yoqqan yomg'ir kabidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlash ta'lim jarayonining asosi bo'lgan, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammo sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan ham tarbiyaga ixlos bilan munosabatda bo'lib, uning tarixiy, diniy, axloqiy ildizlarini muntazam o'rganib borish tarbiya jarayonini tashkil etish uchun olib boradigan eng samarali usul

hisoblanadi. Umummilliy va madaniy merosimizni ta'limning har bir bo'g'inida yoshlarimiz ongi tafakkuriga singdirish muhimdir. Va mana shu asosda biz yoshlarimiz hayotida tarbiyaga va uni egallashga keng yo'l ochib bergan bo'lamiz. Ta'lim jarayoni yangi bilim, ko'nikma va malakalar asosida rivojlanib borar ekan, egallangan bilimlarni ijtimoiy hayotimizda bevosita ishtirokini biz ramziy ma'noda tarbiya deb ataymiz. Shu jumladan talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llay olish jarayonini tarbiya deb olsak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarbiya sohasida amalga oshiriladigan faoliyatning o'ziga xosligini A.S.Makarenko "Tarbiya sohasi ba'zi hollarda ta'lim metodikasidan farq qiluvchi alohida sohadir" deb tasniflaydi, Uning fikricha, tarbiyaviy ish metodikasi ta'lim mantig'idan farqli ravishda o'z mantig'iga ega bo'lib, ta'lim va tarbiya ishlari pedagogikaning ikkita bo'limini tashkil etadi. Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya birgalikda tashkil etilsagina haqiqiy ma'naviyatga erishib bo'ladi, ya'ni yoshlar ma'naviy kamolotida tarbiyaning, tarbiya fanining o'rni va ro'li beqiyosdir. Ushbu fanning alohida fan sifatida joriy qilinishi yoshlarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda yangi sahifa ochib berdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev. Sh.M: " Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" .- T.:O‘zbekiston-2017,
2. Mirziyoyev SH.M: "Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"-T:O‘zbekiston-2017,
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi "O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 997-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida" 187-son qarori.